



Maktabgacha yoshdagi bolalarga estetik tarbiya berishning shakllari

Kamilova Gulmira Alimovna

BuxDPI maktabgacha ta'lim
kafedrasi professori**ʼ**p.f.n.

Rabiyeva Muhabbat Akmaljonovna

BuxDPI 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Maktabgacha ta'lim davri bolalarning estetik didi va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda muhim bosqich hisoblanadi. Chunki bu davrda ular atrof-muhitni bilish va anglashga asosiy qadam qo'yadilar. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik tarbiya berishning maqsad va vazifalari hamda nafosat tarbiyasini berishning turli pedagogik shakllari ko'rib chiqildi. Tadqiqot natijalari estetik tarbiya maktabgacha yoshdagi bolalarning har har tomonlama rivojlanishiga yordam berishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Estetika, nafosat, mashg'ulot, maktabgacha ta'lim, san'at, ijodiy fikrlash, tabiat, o'yin faoliyati, madaniy meros, estetik muhit.

Аннотация: Дошкольный период является важным этапом в формировании эстетического вкуса и творческих способностей детей. В этот период они делают первые шаги в познании и осмыслении окружающего мира. В данной статье рассматриваются цели и задачи эстетического воспитания детей дошкольного возраста, а также различные педагогические формы воспитания эстетического вкуса. Результаты исследования показывают, что эстетическое воспитание способствует всестороннему развитию детей дошкольного возраста.



Ключевые слова: Эстетика, нежность, занятие, дошкольное образование, искусство, творческое мышление, природа, игровая деятельность, культурное наследие, эстетическая среда.

Abstract: The preschool period is an important stage in the formation of children's aesthetic taste and creative abilities. During this period, they take the first steps in understanding and perceiving the surrounding world. This article examines the goals and objectives of aesthetic education for preschool-aged children, as well as various pedagogical methods of fostering aesthetic taste. The results of the study show that aesthetic education contributes to the overall development of preschool-aged children.

Key words: Aesthetics, refinement, activity, preschool education, art, creative thinking, nature, play activity, cultural heritage, aesthetic environment.

“O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq bola maktabgacha ta’limni oilada, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida oladi. MTTda ta’lim-tarbiyani tarbiyachi-pedagoglar amalga oshiradi. Tarbiyachi-pedagoglar o‘z faoliyatlarida maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni har tomonlama kamol toptirish yo‘lida amaliy harakatlarni tashkil etish bilan birga ularning estetik tarbiyasiga alohida e’tibor qaratadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta’minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksalttirish, deya prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev bejiz ta’kidlab o‘tmaganlar. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev sharofatlari bilan maktabgacha ta’lim tizimida, chunonchi estetik ta’lim va tarbiyaga alohida e’tibor berila boshladi. Negaki ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan har bir yosh avlod dunyoqarashida estetik ruh, estetik didni



shakllantirish, yoshlarni go`zallik, nafosat olamida tarbiyalash ertangi kunimizning, milliy, boqiy an`analarimizning ustuvor vazifalaridan biri bo`lib qoldi. Estetik tarbiya – insonning voqelikdagi va san`atdagi go`zallikni idrok etish, tushunish va qadriga yetish qobiliyatini o`stiradi. Estetik tarbiya, shuningdek, insoniyat faoliyatining har qanday sohasida estetik boyliklar yaratish, ya`ni go`zallik qonuni bo`yicha ijod qilish ehtiyojidan kelib chiqadi.

Maktabgacha bo`lgan yoshdagi bolalarga nafosat tarbiyasini o`rgatishning maqsadi va vazifalari juda ko`p qirrali pedagogik hamda psixologik jarayon hisoblanadi. Nafosat tarbiyasi maqsadi bir necha yo`nalishlarda namoyon bo`ladi. Ularni shartli ravishda quyidagicha tasavvur etishimiz mumkin bo`ladi:

- bolalarning nafosat tarbiyasiga moyilligi darajasini aniqlash;
- bolalarning nafosat tarbiyasi bo`yicha bilimlari va ko`nikmalari darajasini aniqlash;
- bolalarning nafosat tarbiyasi bo`yicha bajariladigan ishlarning yo`nalishlari va vazifalarini aniqlash;
- bolalarda nafosat tarbiyasining to`g`ri shakllanishiga erishish.

Maktabgacha bo`lgan yoshdagi bolalarga nafosat tarbiyasining vazifalari quyidagilardan iboratdir:

- nafosatning his-tuyg`usini shakllantirish;
- estetik fikr-mulohazani shakllantirish;
- estetik didni to`g`ri tarbiyalash;
- bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;
- go`zallikni sevishga bo`lgan hayotiy ehtiyojini o`stirib borish.

Bolalarda kuzatish madaniyatini tarbiyalash ularning go`zallikka bo`lgan intilishlarini o`stirish uchun juda muhim. Ko`p hollarda bolalar biror narsaga qarab turadilar-u, uning o`zini ko`rmaydilar, quloq soladilar-u, eshitmaydilar. Shuning uchun ularga tabiatda, o`rmonda tog`lar va cho`llarda turli tovushlarni farq qilishni o`rgatish lozim.



Nafosat haqidagi tushunchalarni o'zlashtirib olish, ajoyib san'at asarini sayoz, past saviyada yozilgan asardan farqlash, o'z fikr -mulohazalarini to'g'ri ekanligini qattiq turib, himoya qilishga yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik tarbiyani shakllantirish uchun turli pedagogik shakllardan foydalanish mumkin:

1. San'at orqali estetik tarbiya

San'at – bolalarning estetik dunyoqarashini shakllantirishda eng samarali vositalardan biridir. Musiqa, tasviriy san'at, teatr o'yinlari va adabiyot bolalarning estetik qobiliyatlarini rivojlantiradi. Masalan:

Musiqa darslarida – bolalar qo'shiqlarni kuylash, musiqa tinglash orqali ohang va ritmni his qilishni o'rganadilar;

Rasm chizish mashg'ulotlarida – ranglar bilan ishlash, tabiatni tasvirlash orqali bolalarda go'zallikka e'tibor shakllanadi;

Adabiyot va ertaklar orqali bolalarning tasavvuri boyiydi.

2. Tabiat vositasida estetik tarbiya

Tabiatning go'zalligini kuzatish va uni qadrlash maktabgacha yoshdagi bolalarning estetik ongini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Sayr va ekskursiyalar: Tabiat qo'yniga sayohatlar orqali bolalarda gullar, daraxtlar, hayvonlar va boshqa tabiat go'zalliklariga mehr uyg'otiladi.

Bog'dorchilik faoliyati: Bolalar o'z qo'llari bilan o'simliklar ekib, ularga g'amxo'rlik qilishni o'rganadilar, bu esa ularda ijodiy yondashuvni rivojlantiradi.

3. O'yin faoliyati orqali estetik tarbiya

O'yin faoliyati bolalarning maktabgacha davrdagi asosiy faoliyatidir. O'yin orqali bolalarga estetik qadriyatlarni singdirish oson va samarali hisoblanadi.



Rolli o'yinlar: Bolalar turli rollarni ijro etish orqali obraz yaratish va go'zallikni tasavvur qilishni o'rganadilar. Masalan, "tabiatni muhofaza qilish" mavzusidagi o'yinlarda bolalar tabiatni sevisish va asrashga o'rganadilar.

Konstruktiv o'yinlar: Lego yoki boshqa qurilish o'yinchoqlari yordamida bolalar o'zlarining ijodiy g'oyalarini amalda sinab ko'radilar va ularning estetika hissi rivojlanadi.

Teatr o'yinlari: Turli sahna ko'rinishlarini ijro etish bolalarning nafaqat ijodiy, balki emotsional rivojlanishiga ham hissa qo'shadi.

4. Madaniy-tarixiy meros orqali tarbiya

Bolalarga xalq madaniyati va tarixiy qadriyatlarni tushuntirish estetik tarbiyaning yana bir muhim yo'nalishidir. Bu bolalarda milliy iftixor hissini shakllantiradi.

Milliy bayramlar va tadbirlar: Bunday tadbirlarda ishtirok etish bolalarning urf-odat va an'analar bilan tanishishiga yordam beradi.

Xalq amaliy san'ati: Qog'oz kesish, milliy naqshlar yaratish kabi mashg'ulotlar orqali bolalar milliy madaniyatni anglaydilar.

5. Estetik muhit yaratish

Bolalar uchun estetik muhitni shakllantirish tarbiyaning muhim qismi hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida va uyda rang-barang, go'zal va tartibli muhit yaratilishi kerak.

Xonalarni bezash: Ranglarning uyg'unligi va qiziqarli bezaklar bolalarning estetik his-tuyg'ularini uyg'otadi.

Go'zal odobni o'rgatish: Tozalik, tartiblilik va madaniyatli muloqotga e'tibor qaratish orqali bolalarda ichki va tashqi go'zallik tushunchasi shakllanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik tarbiya nafaqat go'zallikni tushunish va qadrlashga, balki ijodiy fikrlash, axloqiy qadriyatlarni anglash va ijtimoiy moslashuv qobiliyatlarini rivojlantirishga ham katta hissa qo'shadi. San'at, tabiat, o'yin faoliyati va madaniy muhitdan foydalanish orqali estetik tarbiya berish nafaqat bolalarning hayotini



boyitadi, balki kelajakda estetik qadriyatlarni amalda qo‘llay oladigan barkamol shaxslarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning maktabgacha ta’limni rivojlantirish bo‘yicha qaror va farmonlari.
2. Xodjayev A. ‘Pedagogik mahorat’. Toshkent : O‘qituvchi, 2019.
3. Qayumova M. "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi". Toshkent: Sharq nashriyoti, 2020.
4. Jalolova N., Safarov A. "Estetik tarbiya va uning ahamiyati". Ilmiy pedagogik jurnal, 2022-yil, №3.
5. Vygotskiy L.S. "Bolalarning estetik rivojlanishi". Moskva: Pedagogika nashriyoti, 1984. Qodirova F., Toshpo‘latova SH., A‘zamova M. Maktabgacha pedagogika. —T.: Ma'naviyat, 2013.-161 b.
6. "Maktabgacha ta’limda ijodkorlikni rivojlantirish metodikasi". Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, Toshkent, 2021.